

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NURIMBETOVA ELMIRA JUMAMURATOVNA**

**TALABA-PSIXOLOGLARNING KASBIY-MUHIM SIFATLARI  
RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора психологических  
наук (DSc)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Psychological  
Sciences (DSc)**

**Nurimbetova Elmira Jumamuratovna**

Talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlari rivojlanishining ijtimoiy  
psixologik xususiyatlari ..... 3

**Нурымбетова Эльмира Жумамуратовна**

Социально-психологические особенности развития профессионально-  
важных качеств студентов-психологов..... 33

**Nurimbetova Elmira Zhumamuratovna**

Social and psychological features of development of professionally important  
qualities of a student-psychologist..... 63

**Список опубликованных работ**

E'lon qilingan ishlar ro'yxati  
List of published works..... 68

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NURIMBETOVA ELMIRA JUMAMURATOVNA**

**TALABA-PSIXOLOGLARNING KASBIY-MUHIM SIFATLARI  
RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/ Psi 150 raqam bilan ruyxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (psi-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Muxamedova Dilbar Gafurjanovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kodirov Umarali Dustkobilovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor;

**Abdullaeva Shoiraxamidovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor;

**Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**  
psixologiya fanlari doktori, professor;

**Etakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida huzuridagi PhD 03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Bir Martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 4 fevral kuni soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Buniyodkor ko'chasi 27-uy. Tel: (+99871) 2768232. Faks: (+99871)276-76-51; e-mail:tdpu\_kengash@edu.uz

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (        raqam bilan ruyxatga olingan.) (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Buniyodkor ko'chasi 27-uy. Tel: (+99871) 2768232.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 4 fevral da tarqatildi.

(2025-yil «        » da 14 raqamli reestr bayonnomasi.)



**F.A.Akramova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixol.f.d., professor

**A.B.Atabaeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, psixol. f.d., professor

**Z.T.Nishanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixol.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda butun dunyoda mehnat bozori talablari keskin o'zgarib bormoqda, bu esa yoshlardan kasb egallashi uchun yangi sharoitlarga tez moslashishni taqozo etmoqda. Shu sababli, qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirish, kasb-hunar ta'limi mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish va yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy resurslarini yaxshilashning muhim mezonidir. Chet elda psixologlar tayyorlash 19-asr oxirida AQShda shakllangan psixologik ta'lim an'analarga asoslanadi. 1990 yil 14-16 sentyabrda Lyuksemburgda bo'lib o'tgan Bosh Assambleyada «EFPA»-Evropa Psixologik Assotsiatsiyalar Federatsiyasi har bir mamlakatda kasbiy psixologiya bo'yicha ta'lim mazmuni va shakli muqarrar ravishda o'zining huquqiy, ta'limiy va kasbiy an'alarini aks ettirishini ta'kidlagan<sup>1</sup>.

Bo'lajak psixologlarni tayyorlash muammosi umuman keng o'rganilgan va uzoq vaqtdan beri dolzarb muammo bo'lib kelgan bo'lsa-da, uning ba'zi jihatlarini hali ham etarlicha o'rganilmagan. Talaba-psixologlar psixologik va kasbiy-muhim sifatlarining (KMS) rivojlanish darajasini o'rganish muammolari ko'pincha amaliy psixologiya sohasidagi mutaxassislarga qo'yiladigan talablarga javob berish uchun yetarli emas. Bu ularning bitiruvdan keyingi kasbiy faoliyatga moslashishini qiyinlashtiradi va real sharoitlarda ishlash samaradorligini pasaytiradi. Ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida ko'pincha nazariy bilimlarga e'tibor beriladi, empatiya, stressga chidamlilik, kommunikativ ko'nikmalar, ishonchli aloqalarni o'rnatish qobiliyati va o'z-o'zini refleksiya qilish qobiliyati kabi KMSni rivojlantirish e'tibordan chetda qolmoqda. Muammoni KMS obyektiv diagnostikasining murakkabligi ham kuchaytiradi, chunki hissiy barqarorlik, kasbiy etika va qaror qabul qilishda avtonomlik kabi sifatlar ularni baholashda ixtisoslashgan yondashuvlarni talab qiladi.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'limni tizimli isloh qilishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlardan biri zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'lib, uning asosida zarur normativ-huquqiy asos yaratildi: «oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish...»<sup>2</sup>. Ushbu o'zgarishlar psixologiya faniga bo'lgan ijtimoiy talabda va shunga mos ravishda tegishli oliy o'quv yurtlari tomonidan amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishda o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» «Strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi

---

<sup>1</sup> The English of Psychology in Use.- Новосибирск, 2006.-152 c

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019., 19.06.5847/3887.

Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyuldagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish, zamonaviy psixologning kasbiy-muhim fazilatlarini o'rganish, uning amaliy faoliyatga tayyorligiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilmogda, jumladan, Shimoli-sharqiy universitet (Northeastern University Boston, AQSH), Myunxen universiteti (LMU, Germaniya), Rejents universiteti (Regents University, Buyuk Britaniya), Moskva davlat universiteti (M.V.Lomonosov nomidagi MDU, Rossiya), Xitoy Milliy pedagogik tadqiqotlar markazi (NIES, Guanjou), Seul Milliy universiteti (Seoul National University, Janubiy Koreya) va boshqalar.

Psixologlarning kasbiy-muhim xususiyatlarini oshirish va ularni tayyorlashni o'rganishga qaratilgan dunyodagi zamonaviy tadqiqotlar asosida quyidagi muammolar aks ettirilgan va natijalar olingan: amaliyotchi va klinik psixologlarni tayyorlashda global ruhiy salomatlik masalalarini kiritish maqsadida psixologik ta'limni transformatsiya qilish (Psixiatriya fakulteti, Amerika Bayrut universiteti, Livan); psixolog doktorantlarni tayyorlash, ularda an'anaviy individual rahbarlikni almashtirish o'rniga tashkil etilgan tadqiqot guruhlarida o'qitish, shu jumladan doktoranturaning keng milliy dasturlari - Graduertenkollegs (Germaniya) tashkil etiladi; nazariy yondashuvlar va ko'p madaniyatli maslahat berish (AQSh) asosida global psixologlarni tayyorlash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston olimlari tomonidan kadrlar tayyorlashning psixologik jihatlariga oid, oliy ta'lim muammolari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan, xususan: R.A.Abdurasulov, B.S.Abdullayeva, F.A.Akramova, N.B.Atabayeva, R.SH.Baratov, A.S.Begmatov, E.G'.G'oziyev, A.M.Jabborov, B.R.Kadirov, K.B.Kadirov, N.G.Kamilova, V.M.Karimova, U.D.Kodirov, N.A.Mirashirova D.G.Muxamedova, Z.T.Nishanova, N.S.Safaev R.I.Sunnatova va boshqalar<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning sharhi quyidagi materiallar asosida amalga oshirildi: Northeastern University Boston (<https://www.northeastern.edu/>); Munich University (<https://www.lmu.de/de/index.html>); Regents University (<https://www.regents.ac.uk/>); Московский Государственный университет (<https://www.msu.ru/>); Seoul National University (<https://www.snu.ac.kr/index.html>); East China Normal University (<https://english.ecnu.edu.cn/>) и др.

<sup>4</sup> Абдурасулов Р.А. Роль ценностей в формировании мотивации. Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки, т. 22, № 74. -345 с.; Abdullayeva, B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari. psixologiya fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T., 2022. -68 b.;

Oliy ta'lim muassasasida kasbiy tayyorgarlikning dolzarb masalalari, professional psixologlar uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-muhim xususiyatlarini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlar E.F. Zeer, E.A.Klimov, A.K. Markova, I.A. Vishnyakov, A.G. Volkovich, M.A. Egorova, A.A.Jigulin, G.U. Matushanskiy, S.P. Popova va boshqalar tomonidan amalga oshirildi<sup>5</sup>.

R. Boyasis, D. R. Mak-Klelland, X. Sadegi va boshqa xorijiy mualliflarning asarlari o'rganilayotgan mavzuga bag'ishlangan<sup>6</sup>.

**Tadqiqot maqsadi** talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatleri rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning diagnostika va korreksiya imkoniyatlarini oshirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

psixologning kasbiy-muhim sifatlarini o'rganish va so'rovnomalar natijalari asosida psixologning kasbiy-muhim sifatleri tarkibiy qismlarining tizimlashtirilgan modelini ishlab chiqish;

talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlarining tarkibiy-mazmunli kompleksini ochib berish;

talaba-psixologlarda kasbiy-muhim sifatlar ko'rsatkichlari va xususiyatlarining namoyon bo'lishining yosh dinamikasini aniqlash: 1 va 4-kurslar;

---

Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari: psixologiya fanlari doktori avtoreferati. - T., 2022. - 68 b.; Atabaeva N.B. Shaxsda al'truiistik xulqni rivojlantirishning psixologik asoslari: psixologiya fanlari doktori avtoreferati. - T., 2022. - 68 b.; Баратов Р.И. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс. докт. психол. наук. - Т., 1998. - 37 с.; Begmatov A.S. Xalqimiz tarixining ochilmagan sahifalari. Nauchnyy zhurnal. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7; Gaziev E.G. Shaxs psixologiyasi va kasb tanlash. - T.: Uzbekiston, 1987. - 125 b., Ontogenez psixologiyasi: Darslik. - T.: "Nashr", 2010. - 360 b.; Кадыров Б.Р. Склонности и их индивидуально-природные предпосылки (на материале подросткового возраста): авт. дис. ...доктора психол. наук. 1989. - 46 с.; Кадыров К.Б. Влияние асертивности на педагогическую компетентность. Заочный факультет / Современное образование 2018 №9. С. 128-135; Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. T. "Fan va texnologiya" 2012. - 1726.; Камиллова Н.Г., Саипова М.Л. Дифференцированный подход к субъекту обучения как важное условие модернизации образования в высшей школе. Научный журнал: Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, №1, 2012. С. 145-148; Суннатова Р.И. Модификация методики Е.А.Климова «ДДО». Материалы Международной научно-практической конференции. - Москва, 2016. - 567 с.; Mirashirova N.A. Ijtimoiy-psixologik portret talaba-psixolog kamolotini aniqlovchi omil sifatida: ps. fanlari buyicha falsafa doktori avtoreferati. - T., 2022. - 54 b.; Мухамедова Д.Г. Социально-психологические особенности эффективной управленческой деятельности менеджера образования. Методика и технологии в образовании - Воронеж, 2010 - №6. - с. 51-54.; Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 38 b.; Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Автореф. дис...д. психол. наук. - Т.: НУУЗ, 2005. - 38 с.; U.D.Qodirov Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. psix.f.dok.dis.. - T., 2020. - 64 b.; X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova «Kasb psixologiyasi» o'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU - 2010. - 162 b.

<sup>5</sup> Зеер Э. Ф. Транспрофессионализм субъектов социально-профессиональной деятельности [Электронный ресурс] / под ред. Э. Ф. Зеера, В. С. Третьяковой. Екатеринбург, 2019. - 142 с.; Климов, Е.А. Психология профессионала: избр. психол. тр. / Е. А. Климов. - М.: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та; Воронеж: МОДЭК, 2003. - 456 с.; Маркова А. К. Психология профессионализма. М.: Международный гуманитарный фонд "Знание", 1996 г. - 278 с.; Вишняков И.А. Условия подготовки профессионального психолога в вузе. // Вопросы профессионализма: психология, методология, практика: Сборник научных статей. - Омск: изд-во Ом ГПУ. - 2003. - 292 с.; Волкович А.Г. Подходы к определению модели профессионально важных качеств практического психолога. // Психологические аспекты профессионального становления: Сборник материалов Всероссийской межвузовской научной конференции. - М.: РИПО ИГУМО и ИТ, 2009. - С. 35-40; Егорова М.А. Модель профессиональной подготовки специалиста-психолога для системы образования. // Психологическая наука и образование. 2003. - № 4. - С. 89-96; Жигулин А.А. Профессионально-значимые качества психолога. // Территория науки. 2014. - №2. - С. 30-34; Матушанский Г.У. Соотношение процессов подготовки психолога и особенностей профессиональной деятельности. // Психологическая наука и образование. - 2003. - №2. - С. 67-70; Попова С.П. Особенности процесса профессиональной подготовки психологов в вузе. // Проблемы национальной безопасности России. Саратов: Научная книга, 2004. - С. 150-155; Шаяхметова В.К. Понятие профессионально-важных качеств в отечественной и зарубежной психологии. // Методология и методика формирования научных понятий у учащихся школ и студентов вузов: Материалы XII междунар. науч. практ. конф. - Челябинск: Изд-во ИИУМЦ «Образование», 2005. - Ч.1. - С. 53-56.



psixolog-talabani amaliy ishga tayyorligi ko'rsatkichi sifatida ijtimoiy va kasbiy normalarga qo'yiladigan talablarga mos ravishda kasbiy-muhim sifatlari shakllantirishning ahamiyatini isbotlash;

talaba psixologning kasbiy-muhim sifatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy-psixologik trening dasturini tayyorlash va uning samaradorligini tekshirish, bu bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonida talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlari. Dissertatsiya tadqiqotida 114 nafar amaliy psixologlar va bo'lajak psixologlarni tayyorlashda ishtirok etayotgan 97 nafar o'qituvchilar ishtirok etdi. Tadqiqot Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpog' davlat universiteti talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Jami 630 nafar respondentlar tashqil qiladi.

**Tadqiqotning predmeti** o'qitishning turli bosqichlarida talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlari rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashqil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodikalaridan foydalanildi: P.MakKraye va P.Kostalarning «Katta beshlik», A.G.Maklakovning «Moslashuvchanlik», N.Xollning «Emotsional intellekt», Sh.Rich va P.Martinning «Shaxs motivatsion profili», R.Shvarsning «Qadriyatlar yo'nalganligi», Ye.Yu.Mandrikovning «O'z faoliyatini tashkil etish», K. Tomasning «Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor uslubi», S. Maddining chidamlilikni aniqlash so'rovnomasi, Yu.Kulning «Harakat nazorati» va talaba psixolog amaliy ishlarga tayyorgarligining rivojlanish darajasini baholash uchun ekspert so'rovnomasi, zamonaviy psixologning kasbiy-muhim sifatlarini baholovchi ekspert so'rovnomasi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan alfa-Kronbax va Kolmogorov-Smirnov mezonlari orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

psixologning kasbiy-muhim sifatlari modeli shaxsdagi ijtimoiy munosabatlar va ijodkorlikka bo'lgan ehtiyoj, kommunikativ qobiliyatlar, muloqotda bir-birini tushunish, adaptatsion salohiyat, odamlarga ijobiy munosabat, fikirlashning moslashuvchanligi, qat'iyatlilik xususiyatlarini professional ta'limda o'zaro integrativ rivojlanishi tufayli «dunyoqarash», «intellektual», «shaxslararo», «shaxsiy fazilatlar» tarkibiy komponentlarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

ijtimoiy hamkorlik va faoliyat ko'rsatish sharoitida shaxsiy xususiyatlar (ekstraversiya, xayrixohlik, vijdoniylik, neyrotizm, tajribaga ochiqlik), qadriyatli yo'nalishlar (yutuqlar, o'zini o'zi anglash, shaxslararo munosabatlar, xavfsizlik, an'analar) va empatiya darajasi (hissiy sezuvchanlik, boshqalarning his-tuyg'ularini kognitiv tushunish, altruistik tayyorlik)ning ustuvor rivojlanish dinamikasiga asoslanib talaba-psixologlar kasbiy-muhim sifatlarining tarkibiy-mazmunli kompleksi ochib berilgan;

psixolog-talabalarning kasbiy rivojlanishi jarayonida ijtimoiy identivlik va motivatsiyaning birinchi kurs talabalarda qadriyatlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari shaxsiy rivojlanish, ichki motivatsiya va o'zini o'zi namoyon qilish istagiga yo'nalganligi, to'rtinchi kurslarda esa qadriyat yo'nalishining barqarorligi shaxsiy



ehtiyojlar va istaklardan professional maqsad va jamoaviy vazifalarga, kasbiy rolning barqarorligiga yo‘nalganligiga o‘tishi tufayli qadriyatlar ta’siri dinamik xususiyatga ega ekanligi dalillangan;

kasbiy ta’lim jarayoni talabalarining kasbiy etukligi va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirganligi tolerantlik, insonparvarlik va ijtimoiy javobgarlik, empatiyani ustuvor shakllanishiga olib kelganligi tufayli talaba-psixologlarning kasbiy-muhim qadriyatlarini shakllantiruvchi ijtimoiy omil sifatida asoslangan;

oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak psixologlarni o‘qitish jarayonida kasbiy-muhim sifatlarining ijtimoiy komponentlarini refleksiv boshqarishni rivojlantirish uchun muhim kommunikativ, emosional va intellektual xususiyatlarga korreksion-adaptiv ta’sir ko‘rsatish muhimligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘tkazilgan tadqiqot asosida «Psixologning kasbiy tayyorgarligi asoslari» monografiyasi tayyorlanib, unda psixologlarning kasbiy-muhim fazilatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha asosiy natijalar o‘z aksini topdi;

mutaxassis shaxsining o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlarini qamrab oluvchi, ichki barqarorlik va o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, umumiy tuzilmaning tizimli tabiati bilan ajralib turadigan tarkibiy qismlarni nazarda tutuvchi zamonaviy psixologning kasbiy-muhim sifatlarining optimal modeli tayyorlandi;

psixolog talabalarining kasbiy-muhim sifatleri rivojlanish darajasi ko‘rsatkichlari va tavsiflarini o‘rganish asosida “Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya” moduli bo‘yitilgan va o‘quv jarayoniga tatbiq qilingan;

maxsus mashg‘ulotlar, mini-ma’ruzalar va tegishli mashqlar orqali talaba-psixologning kasbiy-muhim sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali ijtimoiy-psixologik trening dasturi ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** tadqiqot obyektlarining to‘g‘ri tanlanganligi, tadqiqotlarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, aniqligi, tekshiruvlarning bir necha bosqichlarda va turli usullar yordamida amalga oshirilganligi, foydalanilgan metodikalarning validliligi, olingan empirik natijalarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgan hamda natijalarni statistik qayta ishlash SPSS 26 dasturlari yordamida amalga oshirilganligi belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Olingan natijalar ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan, ular kasbiy-muhim sifatleri shakllantirishda shaxsiyat xususiyatlari, qadriyat yo‘nalishlari va empatiyaning o‘zaro ta’siri haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Amaliy jihatdan, ular vijdonlilik, hissiy barqarorlik va boshqalarga yordam berishga yo‘nalganlik kabi sifatleri rivojlantirishi mumkin bo‘lgan ta’lim texnologiyalari va treninglarini amalga oshirish uchun asos yaratadi, bu psixologiya sohasidagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun juda muhimdir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o‘rganilayotgan hodisaning ilmiy tushunishni ochib beradigan va konkretlashtiradigan, psixodiagnostika jarayoniga ilmiy asoslangan yondashishga imkon beradigan tarkibiy model ishlab chiqilgan, shuningdek, oliy ta’lim muassasasi sharoitida zamonaviy talaba-psixologning kasbiy-muhim sifatleri rivojlantirish ijtimoiy va pedagogik psixologiya sohasidagi tadqiqotlarda

kasbiy-muhim sifatlarni takomillashtirish muammolarini hal qilish uchun ilmiy xulosalardan foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlari rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida:

psixologning kasbiy-muhim sifatlari modeli shaxsdagi ijtimoiy munosabatlar va ijodkorlikka bo'lgan ehtiyoj, kommunikativ qobiliyatlar, muloqotda bir-birini tushunish, adaptatsion salohiyat, odamlarga ijobiy munosabat, fikirlashning moslashuvchanligi, qat'iyatlilik xususiyatlarini professional ta'limda o'zaro integrativ rivojlanishi tufayli «dunyoqarash», «intellektual», «shaxslararo», «shaxsiy fazilatlar» tarkibiy komponentlarini kiritish asosida takomillashtirilganligi bo'yicha ilmiy tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 09-iyuldagi PM-154 buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-154a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlari komponentlari tizimlashtirilgan model ishlab chiqilgan;

ijtimoiy hamkorlik va faoliyat ko'rsatish sharoitida shaxsiy xususiyatlar (ekstraversiya, xayrixohlik, vijdoniylik, neyrotizm, tajribaga ochiqlik), qadriyatli yo'nalishlar (yutuqlar, o'zini o'zi anglash, shaxslararo munosabatlar, xavfsizlik, an'analar) va empatiya darajasi (hissiy sezuvchanlik, boshqalarning his-tuyg'ularini kognitiv tushunish, altruistik tayyorlik)ning ustuvor rivojlanish dinamikasiga asoslanib talaba-psixologlar kasbiy-muhim sifatlarining tarkibiy-mazmunli kompleksi ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 09-iyuldagi PM-154 buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-154 a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlarining strukturaviy mazmuni ochib berilgan;

psixolog-talabalarning kasbiy rivojlanishi jarayonida ijtimoiy identivlik va motivatsiyaning birinchi kurs talabalarda qadriyatlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar shaxsiy rivojlanish, ichki motivatsiya va o'zini o'zi namoyon qilish istagiga yo'nalganligi, to'rtinchi kurslarda esa qadriyat yo'nalishining barqarorligi shaxsiy ehtiyojlar va istaklardan professional maqsad va jamoaviy vazifalarga, kasbiy rolning barqarorligiga yo'nalgagligiga o'tishi tufayli qadriyatlar ta'siri dinamik xususiyatga ega ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 09-iyuldagi PM-154 buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-154a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlarining yoshga oid dinamik xususiyatlari kurslar kesimida yoritib berilgan;

kasbiy ta'lim jarayoni talabalarning kasbiy yetukligi va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirganligi tolerantlik, insonparvarlik va ijtimoiy javobgarlik, empatiyani ustuvor shakllanishiga olib kelganligi tufayli talaba-psixologlarning kasbiy-muhim

qadriyatlarini shakllantiruvchi ijtimoiy omil sifatida asoslanganligiga oid ilmiy takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 09-iyuldagi PM-154 buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-154a-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-psixologlarning kasbiy-muhim sifatlarini shakllanishi amaliy faoliyatga tayyorlikning komponenti ekanligi ochib berilgan;

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak psixologlarni o'qitish jarayonida kasbiy-muhim sifatlarining ijtimoiy komponentlarini refleksiv boshqarishni rivojlantirish uchun muhim kommunikativ, emosional va intellektual xususiyatarga korreksion-adaptiv ta'sir ko'rsatish muhimligi isbotlanganligi bo'yicha ilmiy takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 09-iyuldagi PM-154 buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-154 a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda kasbiy-muhim sifatlarining refleksiv boshqarishni rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot ishining asosiy natijalari bo'yicha 22 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalarda, 1 monografiya, 1 metodik qo'llanma nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 230 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati; dissertatsion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi (OTM) ilmiy-tadqiqot rejaları bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan, shuningdek, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Psixologiya fanida psixologning kasbiy-muhim sifatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan bo'lib, uchta paragrafdan iborat bo'lib, unda bayon etilgan muammoning chuqur nazariy tahlili va mavzu bo'yicha tadqiqotning eng muhim empirik natijalari amalga oshirilgan.

Ushbu bobda, shuningdek, psixologning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan

zamonaviy talablarning xususiyatlari, psixologning kasbiy-muhim sifatlari ko'rib chiqilgan, psixologni amaliy faoliyatga tayyorlashning mazmuni ochib berilgan, psixologiya fanida psixologlarni tayyorlashning usullari, tamoyillari va hozirgi holati yoritilgan. Bugungi kunga kelib, KMSni tushuntirish va o'rganishda uchta asosiy metodologik yondashuv shakllandi.

Birinchi yondashuv - an'anaviy professiografik. Ushbu yondashuv doirasida tadqiqotlar E.A.Klimov, V.D.Shadrikov va A.V.Karpov (va boshqalar) kabi olimlar tomonidan olib borildi. Mualliflar o'z tadqiqotlari natijasida ushbu yondashuvni shakllantirgan quyidagi asosiy qoidalarda ifodalangan xulosalarga kelishdi: professional vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi KMS tizimini tashkil etishning natijasidir, unda individual elementlar kompensatsiya va to'ldirish tamoyili bo'yicha bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi.

Shu munosabat bilan, tadqiqotlarning aksariyati KMSni ikkita asosiy klasterga ajratadi – operatsion va motivatsion. Birinchisi, masalan, kasbiy qobiliyat, ong, fikrlash va boshqa funktsiyalar kabi operatsion soha bilan bog'liq sifatlar; ikkinchisi – motivatsion - bu mehnat jarayoni va natijalariga moyillik va qiziqish uchun mas'ul bo'lgan sifatlar, shu jumladan ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar va maqsadlar.

Navbatdagi metodologik yondashuv resurs deb ataladi, chunki tadqiqotchilar ushbu yondashuv doirasida shaxsning KMSlariga emas, balki uning instrumental resurslariga tayanadilar. Bunday resurslarga qobiliyatlar, ko'nikmalar, javob berish uslublari, individual xususiyatlar kiradi. D.A.Leontyev, T.Yu.Ivanova, V.I.Morosanova (va boshqa tadqiqotchilar) tomonidan ilgari surilgan asosiy qoidalar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: yondashuvning asosiy, tizimni tashkil etuvchi omili o'zini o'zi boshqarishning universal shaxsiy resurslari deb ataladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bunday resurslar sub'ekt va tashqi muhit o'rtasidagi tizimli aloqalarni qayta qurish orqali boshqalarni qoplashi mumkin.


Muvaffaqiyatli faoliyatning zaruriy sharti bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi resurslar ajratiladi: barqarorlik resurslari (ishonch, nazorat va qo'llab-quvvatlash hissi), o'zini o'zi boshqarish, motivatsion va instrumental resurslar (qobiliyatlar, bilimlar, malakalar). Zamonaviy voqelikda muvaffaqiyatli karyera uchun turli xil muammolarni hal qilishda resurslarni safarbar qilishning universal ko'nikmalariga ega bo'lish muhimdir: axborot savodxonligi, samarali muloqot qilish va o'z faoliyatini, shu jumladan boshqa insonlar bilan hamkorlikda tashkil etish qobiliyati.

Uchinchi metodologik yondashuv metaprofessional sifatlari deb ataladi. «Metaprofessional sifatlari» maxsus atamasi turli xil ijtimoiy va kasbiy faoliyat turlarining samaradorligini belgilaydigan shax tavsifining keng doirasini anglatadi, ular orasida ijtimoiy-kasbiy va virtual mobillik, muloqotchanlik, amaliy intellekt, mas'uliyat, kollektivizm, korporativlik va boshqalar mavjud. Bu ush yondashuvlar ichida eng zamonaviysi va noyobidir. Ushbu yondashuv asosan E.F.Zeer tomonidan shakllantirilgan.

Dissertasiyaning «**Psixolog kasbiy-muhim sifatlarning mazmuniy tarkibi**» nomli ikkinchi bobida mutaxassis modelini yaratish bo'yicha mavjud konseptual qoidalar, shuningdek, fanda ushbu muammoni tizimli hal qilish asosida biz zamonaviy psixologning kasbiy- muhim sifatlarning tarkibiy modelini tayyorladik. Mazkur

ishlanmaning asosini zamonaviy psixologning dolzrab kasbiy-muhim sifatlarini aks ettiruvchi komponentlar tashkil qildi. Shu bilan birga, ularni aniqlash uchun biz oldindan tayyorlangan so‘rovnoma asosida ekspert bahosini tashkil qildik va o‘tkazdik.

Ushbu vositaning asosi ilgari nazariy tahlil natijalariga asoslanib, tegishli tarkibiy komponentlarga birlashtirilgan psixologning quyidagi kasbiy-muhim sifatlarini 1-rasmda umumlashtirilgan:



**1-rasm. Psixolog kasbiy-muhim sifatlarning strukturaviy komponentlari modeli**

Jami 211 kishi (ekspert), ayollar (57,3% - 121 kishi) va erkaklar (42,7% - 90 kishi), amaliy psixologlar (54% - 114 kishi), shuningdek pedagoglar (46%). - 97 kishi) - bevosita ishtirok etdi. Umuman olganda, ekspert baholash natijalari, yuqorida aytib o'tilganidek, zamonaviy psixologning kasbiy-muhim sifatatlarining tarkibiy modelini tayyorlashga imkon berdi.

Taklif etilgan tarkibiy modelni ko'rib chiqib, modelning deyarli har qanday kasbiy-muhim sifati har bir kishiga xos bo'lishi mumkinligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir, ammo ularning ifodalanish darajasida turli odamlarda farq mavjud. Bo'lajak psixologlarning kasbiy-muhim sifatleri tegishli xususiyatlarini rivojlantirish va ularning faol hamkorligi natijasida yuzaga keladi. Bu bo'lajak psixologlarning kasbiy-muhim sifatlarini funksional-ma'naviy jihatdan to'ldirishning maqbul darajasi hisobiga amalga oshiriladi. Ular kasbiy-muhim sifatlarining deyarli barchasini yetuk darajaga yetkazadigan tarzda to'ldirishlari zarur. To'ldirish jarayonida keng ma'noda shaxsiy va xulq-atvor darajasida o'z-o'zini boshqarish sodir bo'ladi.

Talaba psixologlarning KMSi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishda korrelyatsiya testlari natijalarini taqdim etishdan keyin, ta'lim olishning turli bosqichlaridagi talabalarning KMSini taqqoslashga o'tamiz. Avval biz barcha shkalalarni ishonchlilik-muvofiqligi bo'yicha tekshirib chiqdik. Ma'lumotlarning ishonchliligi va muvofiqligini tekshirish uchun biz so'rovnomalarning barcha o'lchovlari uchun alfa-Kronbax koeffitsiyentlarini hisoblab chiqdik. Shkalalar bir qismining ishonchliligini tekshirishda alfa-Kronbax koeffitsiyentining etarlicha yuqori ko'rsatkichlari topildi.

#### 1-jadval

#### “Katta beshlik” va «Qadriyatlar yo'nalganligi» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsiya(Ch.Spirmen korrelyatsiya mezon) n=254

	Konformlik	An' analar	Mehribonlik	Universalizm	Mustaqillilik	Stimulyatsiya	Gedonizm	Muvaffaqiyat	Xokimlik	Xavfsizlik
Ekstraversiya	0.16	0.211	0.184	0.163	0.3848*	0.232	0.206	0.273	0.158	0.245
Xayrixohlik	0.257	0.297	0.298	0.243	0.107	0.098	0.124	0.060	-0.099	0.230
Vijdonlilik	0.367*	0.405*	0.283	0.333*	0.403*	0.304	0.162	0.308*	0.093	0.356*
Neyrotizm	-0.137	-0.280	0.051	-0.187	-0.234	-0.177	-0.166	-0.203	-0.070	-0.230
Tajribaga ochiqlik	0.146	0.184	0.259	0.333*	0.385*	0.272	0.173	0.246	0.072	0.190

Izoh\* -  $p \leq 0,05$

«Katta beshlik» va «Qadriyatlar yonalganligi» metodikasi shkalalari o'rtasida quyidagi o'zgaruvchilar orasidagi statistik muhim bevosita o'zaro aloqalar aniqlandi:

Ekstraversiya va erkinlik ( $r = 0.384, p \leq 0,05$ ). Muloqotda o'zini qulay his qiladigan odamlar ko'pincha kuchli shaxsiy nuqtai nazarga va erkinlikka moyillikka ega bo'lishadi. Bundan tashqari, ekstravertlar atrofdagilar bilan faol hamkorlik qilishadi, o'z harakatlarida mustaqillikni saqlagan holda, jamiyatga yaxshiroq moslashishi mumkin. Ijtimoiy va shaxsiy motivatsiyaning bunday integratsiyasi ushbu xususiyatlarning o'zaro aloqasiga xizmat qiladi. Ba'zi madaniyatlarda (ayniqsa jamoaviy madaniyatlarda) yuqori ekstraversiya va erkinlik ayni paytda faollik va mustaqillikning qadriga yetadigan ijtimoiy me'yorlar natijasida o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin.

Vijdonlilik va konformlik ( $r = 0.367, p \leq 0,05$ ). Ushbu o'zaro aloqani ijtimoiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin: ikkala xususiyat ham jamoada muvaffaqiyatli moslashishga xizmat qiladi: vijdonli odamlar o'z majburiyatlarini bajarishadi va shu bilan ijtimoiy guruhga qo'shib ketishga intilishadi, konform odamlar esa – ijtimoiy qoidalar, me'yorlarga rioya qilishadi va umuman, guruhning bir qismi bo'lishga harakat qilishadi, bu esa ularning xulq-atvori ijtimoiy ma'qullanishiga olib keladi.

Vijdonlilik va an'analar ( $r = 0.405, p \leq 0,05$ ). An'analar barqaror me'yorlar, odatlar va qoidalarga hurmatni ko'zda tutadi, bu umuman vijdonlilik tushunchasining mazmuni bilan yaxshi muvofiqlashadi. An'analar ko'pincha oilaga hurmat bilan bog'langan, vijdonli shaxslar esa, qoida tariqasida, oilaviy majburiyatlarga mas'uliyat bilan yondashishadi, bu ham shunday o'zaro bog'liqlikning sababi bo'lishi mumkin. Vijdonlilik ichki intizom va odob-axloqqa hurmat bilan bog'liq bo'lib, bu hurmat aynan sotsium va madaniyat bilan belgilanadi, an'analar esa avloddan avlodga o'tib kelayotgan ushbu ma'lum ma'naviy va axloqiy prinsiplarga rioya qilishga asoslangan.

Vijdonlilik va universalizm ( $r = 0.333, p \leq 0,05$ ). Ikkala sifat ham jamiyat oldida shaxsan javobgarlikni his qilish bilan bog'liq: vijdonli odamlar o'z majburiyatlarini bajarishga intilishadi; universallar ijtimoiy va ekologik muammolar haqida qayg'urishadi, bu uyushganlik va maqsadga intilganlikni talab qiladi. Vijdonli odamlar ko'pincha qadriyatlar va maslamlarning aniq tizimi doirasida harakat qilishadi, adolat va tenglik g'oyalarga asoslangan universalizm esa, shunday shaxslarga yaqin bo'lishi mumkin.

Vijdonlilik va erkinlik ( $r = 0.403, p \leq 0,05$ ). Ikkala shkala ham shaxsiy javobgarlikka moyillikni ko'zda tutadi: vijdonli odamlar burch, ya'ni tashqi ehtiyoj hissi tufayli mas'uliyatli, erkin odamlar esa – o'z qadriyatlari va ustuvor yo'nalishlari, ya'ni ichki ehtiyojlariga muvofiq harakat qilishga intilish tufayli mas'uliyatli, biroq har ikkala tavsif ham intiladigan natija - taxminan bir xil.

Vijdonlilik va stimulyatsiya ( $r = 0.304, p \leq 0,05$ ). Vijdonli shaxslar betartib harakatlarga yo'l qo'yishmaydi, lekin agar sinchkovlik va nazoratni talab etuvchi elementlari bo'lsa, stimulyatsiya vaziyatlariga intilishi mumkin. Yangilik va umuman yangi tajriba vijdonli odam tomonidan ijtimoiy doiralardan tashqari chiqishga imkoniyat, jamiyatga o'z yutuqlari va imkoniyatlarini namoyish qilish, shuningdek, o'z ko'nikmalarini yaxshilash va ufqlarini kengaytirish imkoni sifatida qabul qilinishi mumkin.

Vijdonlilik va Yutuqlar ( $r = 0.308, p \leq 0,05$ ). Tavsiflar sifatida Vijdonlilik va Yutuqlar unumdorlikka, muvaffaqiyat va yuqori natijalarga umumiy mo'ljallash orqali bir-birini



rag‘batlantirishi mumkin. Bu xususiyatlar uyushganlik, qat‘iyat va muvaffaqiyatga intilishni uyg‘unlashtirgan shaxsni shakllantiradi. Vijdonli odamlar ko‘pincha sezilarli natijalar olishga yo‘nalgan bo‘ladi, bu Yutuqning eng muhim shkalasi - muvaffaqiyatlilik va samaradorlikni namoyish etish bilan mos keladi.

Vijdonlilik va xavfsizlik ( $r = 0.356, p \leq 0,05$ ). Shaxsiy va ijtimoiy sohalarda barqaror hamda xavfsiz yashashga mo‘ljallangan shaxsni shakllantira turib, ikkala tavsif ham bir-birini mustahkamlab boradi. Vijdonli odamlar uyushganlik, aniq tuzilishga egalik va majburiyatlarni bajarishni qadrlashadi, bu xavfsiz va oldindan aytish mumkin bo‘lgan muhitni yaratishga ko‘maklashadi, bu esa, albatta, ham shaxsiy, ham ijtimoiy hayotda barqarorlik, himoya va tartib istagi bilan bog‘liqdir.

Tajriba uchun ochiqlik va universalizm ( $r = 0.333, p \leq 0,05$ ). Tajriba uchun yuqori darajadagi ochiqlikka ega odamlar ko‘pincha ham bilimlar jihatidan, ham dunyoni qabul qilish jihatidan o‘z ufqlarini kengaytirishga intilishadi. Bu turli madaniyatlar va dunyoqarashlarga hurmatni o‘z ichiga olib, Universalizmning bir qismi hisoblanadi. Yangilikka ochiq odamlar ko‘proq empatik bo‘lib, boshqalarning kechinmalarini tushunishga layoqatli, bu, shubhasiz, Universalizm qadriyatining mazmunini va odamlarga hurmat va ularga, tabiatga va atrof muhitga g‘amxo‘rlik qilish kabi tavsiflarni qo‘llab-quvvatlaydi. Tajriba uchun ochiqlik mavhumlikka tolerantlik va yangi, ba‘zan odatdan tashqari qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq.

## 2-jadval

### «Qadriyatlar yo‘nalganligi» va «Emotsional intellekt» o‘rtasidagi korrelyasiya (Ch.Spirmen korrelyatsiya mezon) $n=254$

	Konformlik	An‘analar	Mehribonlik	Universalizm	Mustaqillik	Stimulyatsiya	Gedonizm	Muvaffaqiyat	Xokimlik	Xavfsizlik
Hissiy xabardorlik	0.199	0.179	0.259	0.325*	0.229	0.272	0.281	0.241	0.291	0.241
O‘z emotsiyalarini boshqarish	0.137	0.135	0.153	0.224	0.173	0.145	0.234	0.140	0.245	0.146
O‘z-o‘ziga motivatsiya berish	0.197	0.207	0.219	0.249	0.281	0.258	0.283	0.216	0.209	0.194
Empatiya	0.228	0.269	0.327*	0.292	0.214	0.319*	0.379*	0.311*	0.287	0.262
Boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tan olish	0.251	0.239	0.317*	0.337*	0.263	0.297	0.359*	0.298	0.343*	0.228

Izoh: \* –  $p \leq 0,05$ ;

Tajriba uchun ochiqlik va erkinlik ( $r = 0.385$ ,  $p \leq 0,05$ ). Yangilik uchun ochiq odamlar nostandart qarorlar qabul qilish va muqobil yo'llarni qidirishga moyildirlar, bunday shaxslar ko'pincha umum qabul qilgan me'yorlarga amal qilmasligi, balki shaxsiy tajriba va qabul qilishga mo'ljall olishi sababli, bu erkinlikni talab qiladi. Tajriba uchun yuqori darajadagi ochiqlikka ega odamlar rivojlanishning noyob va nostandart yo'llarini izlashlari mumkin, bu ham qarorlar qabul qilishda Erkinlikni talab qiladi. Noyob bo'lish va atrofdagilarning fikrlariga qaram bo'lmaslikka bunday intilish ushbu shkalalarning o'zaro aloqalariga ko'maklashadi.

Shvars va Xoll metodikalarining shkalalari o'rtasida quyidagi o'zgaruvchilar orasidagi statistik muhim bevosita o'zaro aloqalar aniqlandi:

Hissiy xabardorlik va universalizm ( $r = 0.325$ ,  $p \leq 0,05$ ) bunday o'zaro aloqaning potensial sabablariga quyidagi tendensiyalarni kiritishimiz mumkin: Yuqori empatiyali odamlar boshqa odamlarning his-tuyg'ularini qabul qilish va chuqur tushunishga qodir bo'lib, bu ularga atrofdagilarning ehtiyojlariga hushyorroq aks munosabat bildirishlariga imkon beradi. Boshqalarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berishga bunday intilish yaxshilikni namoyon qilish bilan uzviy bog'langan, chunki boshqalarning his-tuyg'ulari va kechinmalarini yengillashtirishga intilar ekan, bunday odamlar ko'pincha o'z xatti-harakatlarida g'amxo'rlik va olijanoblikni namoyon qilishadi. Yuqori darajadagi empatiya hatto bu mal'um bir zo'riqishlar yoki qurbon berishlarni talab qilsa ham, odam boshqalarning manfaatlari yo'lida harakat qiladigan altruistik xulq-atvorga ko'maklashishi mumkin.

Empatiya va stimulyasiya ( $r = 0.319$ ,  $p \leq 0,05$ ). Ba'zi ehtimol tutilgan sabablarni ajratib ko'rsatamiz: empatik odamlar ko'pincha boshqalarni tushunish va qo'llab-quvvatlashga intiladilar. Bunda ko'rsatilgan holat yangi ijtimoiy o'zaro hamkorliklar va kechinmalarni potensial jihatdan qidirishga olib kelishi mumkin, bu tajribaning xilma-xilligi va yangi taassurotlarni o'z ichiga olgan stimulyasiya qadriyati bilan uyg'unlashadi.

